

THE ROLE OF SOCIAL MEDIA IN ONLINE TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES.

Khalimdjanova Shakhnoza Mamurdjanovna

Uzbekistan journalism and mass communications university

2nd year master's degree

Qodirova Makhliyo Abdusattor qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar univeriteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'nggi yillarda ta'lif tizimida olib borilayotgan keng o'zgarishlar, O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishga bo'lgan e'tibor, xorijiy tillarni o'rgatishda You tube, Telegram, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va ahamiyati, ularning qulaylik va afzallikkari haqidagi turli fikrlar hamda tillarni masofaviy o'qitish va o'rganishda turli zamonaviy yondashuvlar haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, ijtimoiy tarmoqlar, masofaviy ta'lif, raqamlashtirilgan axborot texnologiyalar, media texnologiyalar.

Abstract: In this article, extensive changes in the educational system in recent years, attention to teaching foreign languages in Uzbekistan, the role of social media such as YouTube, Telegram, Instagram in teaching foreign languages in distance education system are discussed . Thus, general information about social networks, its importance, different scientific opinions about their convenience and benefits , various modern approaches to language teaching are analized.

Keywords: foreign languages, social networks, distance education, digitized information technologies, media technologies.

21- asr raqamlashtirilgan axborot texnologiyalar asrida xorijiy tillarni o'rganish barcha soha vakillari uchun muhim vazifalardan bo'lib kelmoqda. Turli tillarni o'rganish, ayniqsa, ingliz tilini bilish bu shu tilda so'zlashadigan xalqlarning madaniyati, urf odati, turmush tarzi va yashash sharoitlari haqidagi dunyoqarashni boyitishga yordam berishi biz uchun sir emas albatta. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli farmoniga asosan xorijiy tillarni chuqur o'rganish talab etilmoqda.

Bugun yurtimizning har bir soha vakili oldiga qo'yilayotgan davlat talablaridan biri bu xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini puxta o'rganish va shu til orqali dunyo miqyosida turli sohalarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, ta'limda targ'ib etilayotgan zamonaviy o'qitish metodlari haqida o'z vaqtida xabardor bo'lish va uni ommalashtirish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, Covid 19 pandemiyasi davridan boshlab, uyda qolib masofaviy ta'lif olish hamda ta'lif berish imkoniyati paydo bo'ldi va hanuz bu noan'anaviy ta'lif, ya'ni online

ta'lim tizimi til o'rgatuvchilar hamda o'rganuvchilar orasida muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Albatta, Onlayn ta'llimni qo'lllashning ilk bosqichlari o'qituvchilar uchun ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, bular ayniqsa internet bilan bog'liq muammolarda,o'qituvchilarning bu tizimda hali yetarlicha dars o'tish malakasining yo'qligida, darsni tog'ri va maqsadli tashkil etishda, dars soatlarini tog'ri taqsimlashda hamda belgilashda, o'quvchi va talabalarni o'z vaqtida dars mashg'ulotlariga jalb etishda, ularning barchasi bilan bir vaqtning o'zida sifatli va samarali dars mashg'ulotlarini olib borishda hamda ularni o'z vaqtida baholashda bir qator qiyinchiliklarni namoyon etdi. Lekin, keyinchalik bu tizim o'zining bir qator qulayliklari bilan ta'lim jarayonida,ayniqsa,dars jarayonida muntazam qatnasha olmaydigan o'quvchi va talabalar uchun ba'zi qulayliklarni taqdim etdi. Shu bilan birga, onlayn ta'llim tizimi mustaqil ijodni shakllantirish uchun muhim vosita sifatida ham qo'llanila boshladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda xorijiy tillarni turli ijtimoiy media vositalari, You Tube, Telegram, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlardagi turli saytlar hamda platformalar orqali turli interaktiv metodlar , video o'yinlar bilan o'rgatish eng samarali usullardan hisoblanib, ma'lum bir tilni o'rgatishda hamda o'rganishda o'zining cheksiz imkoniyatlarini taqdim etmoqda va bu qulayliklar o'rgatuvchi hamda o'rganuvchilar uchun noan'anaviy hamda sifatli dars mashg'ulotlarini olib borishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ushbu ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar tomonidan keng qo'llanib kelinayotgani bu -Telegram ijtimoiy tarmog'i ekanligi barchamizga ma'lum.Telogram ijtimoiy tarmog'ida mingdan oshiq obunachilarni o'zida jamlagan guruh hamda kanallar orqali turli xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish bo'yicha turli xil viktorinalar hamda test sinovlar bo'lib o'tadi. Albatta bunday sinovlar orqali bilimlar mustahkamlanadi, yangiliklar kashf qilinadi, fikrlar almashinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir qulay tomoni shundaki, ulardagi taqdim etilayotgan ma'lumotlarni istalgan vaqtida, istalgan joyda o'rganish mumkin.

YouTube – katta hajmdagi video fayllar to'plangan sayt. Ushbu sayt orqali ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar turli video fayllarni joylashlari mumkin. Istalgan foydalanuvchi esa bu videolarni ko'rishi mumkin. Ushbu sayt orqali oqituvchilar ham o'zlarining bilim va ko'niklamalarini video yoki audio shaklida yetkazib bera oladilar. Bugun ushu ijtimoiy sayt orqali davlat va xususiy ta'llim muassalarining o'qituvchilari turli ko'rinishdagi interaktiv darslarni tashkil etishmoqda. Ushbu saytning o'qitishdagi afzalligi u orqali o'qituvchilar o'zlarining turli videolarini yuklashlari, ko'rishlari, turli xorijiy filmlarni,musiqalarni o'quvchilarga taqdim etish orqali ularning tinglab tushunish.o'qish, yozish hamda nutqini rivojlantirish kabi ko'nikmalarini shakllantirishlari,turli chet el ta'llim dasturlari haqida xabardor bo'lishlari va o'rganuvchilarga taqdim etish orqali ularni xalqaro ta'llim tizimiga oid turli milliy va xalqaro fan olimpiadalari haqida tezkor xabardor etishlari mumkin. Bir so'z bilan aytgancda, YouTube ijtimoiy tarmog'ini tasvir va ovozga ega katta raqamli kutubxona deyishimiz mumkin.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)

Instagram — Kevin Systrom va Mike Krieger tomonidan yaratilgan hamda rasm va videolarni ulashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq. Shuningdek, boshqa ijtimoiy tarmoq platformalari orqali ularni yuklash imkonini beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar rasmlar va videolar uchun raqamli filtrlar qo'llash imkoniga egadir.

So'nggi paytlarda ushbu ijtimoiy tarmoq o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonidagi faoliyatlarini ommaga taqdim etish orqali o'rganuvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish hamda omma e'tiborini jalb qilish maqsadida faol foydalanilmoqda. Ushbu tarmoq orqali ayniqsa turli ta'lim muassalarining kundalik faoliyatları, dars jarayonları, ushbu ta'lim muassalarida o'tkazilayotgan turli tadbirlar va olimpiadalar haqida tez va oson xabardor bo'lishingiz mumkin.

Bugun sifatli ta'lim berishni yaxshilash maqsadida tashkil etilayotgan xususiy ta'lim muassasalarining o'rni va mavqeい kundan kunga ortib bormoqda va bu ta'lim muassasalarining faoliyati ijtimoiy tarmoqlar orqali keng omma e'tiboriga taqdim etib kelinmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashtirilgan xuxusiy milliy hamda xalqaro Universitetlar, xususiy maktablar, xususiy ta'lim tashkilotlari va o'quv markazlaridagi dars jarayonlarining sifatli amalga oshirilayotganigini ko'rsatib berish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam uzatib boriladigan yangiliklar, kundalik o'zgarishlar, talabalarning ta'lim jarayonlari haqidagi qisqa videoroliklar ularni xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali til o'rgatish hamda o'rganish, eng avvalo, ma'lumotlarga xizmat ko'rsatish hamda vaqt ni tejash uchun paydo bo'lgan.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'qitishning qulayliklari bu taqdim etilayotgan ma'lumotlarni doimiy video va audio ko'rinishida o'z xotirasida saqlab qolishi va foydalanuvchilar uchun doimiy faol holda bo'lishi, ulardagи kontentlarning xilma-xil ko'rinishda, qiziqarli roliklar orqali taqdim etilishi, foydalanuvchilarning yoshi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda qisqa va tushunarli bayon etilishi bilan bog'liq.

Chunonchi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'qituvchilar va talabalar o'rtasida tez va oson fikr almashinish imkoniyatini berish bilan birga qisqa muddat ichida kam harajat qilish orqali yangi tilni o'rganish uchun qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali chet el tajribasi asosida til o'rgatish o'rganuvchilar o'rtasida mustaqil til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirmoqda va ularning til o'rganish bilan bog'liq muammolarini hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'qitishning samaradorligi uning visual tasvirlarni tovushlar bilan o'zaro uyg'unligi sababli o'rganuvchilar uchun ma'lumotlarni tezroq tushunish va oson eslab qolish imkoniyatini beradi.

Tafani, o'zining "ommaviy axborot vositalari orqali ingliz tilini o'rgatish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot maqolasida ta'kidlaganidek, ingliz tilini o'rgatish uchun turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'quvchilarga darsdan tashqari ham o'qituvchilari bilan birgalikda hamda mustaqil shug'ullanishlari uchun turli qiziqarli

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)

mashg'ulotlarni taqdim etish va ularni rag'batlantirish barobarida, ularning vaqtlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu esa ularga kuchli motivatsiya beradi.

Yana bir olim Sad " media texnologiyalaridan, foydalanish an'anaviy sinf o'qitishning monotonligini butkul o'zgartiradi va o'rgatishni rag'batlantiradi" degan fikrni ilgari surgan.

Larsen Friman va Anderson "Texnologiyalar yordamida o'qitish oqituvchilarni foydali va zaruriy manbaalar bilan ta'minlaydi, o'rganuvchilarga esa mustaqil ravishda shug'ullanib, yanada tajriba orttirish imkoniyatini beradi" deya ta'kidlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi baxsmunozarani qiziqarli bo'lismeni ta'minlaydi va bu ularga yanada samarali muloqot qilish imkonini beradi deydi Archambault.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, bugungi raqamlashtirilgan davrda xorijiy tillarni o'rgatishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish har tomonlama qulay va samarali usul hisoblanadi. Turli tillarni o'rgatishda an'anaviylik hamda bir xillik ya'ni kitob o'qish va tahlil qilishdan ko'ra, virtual (online)tarzda, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli vizual o'yinlar, tarqatma materiallar, chet el tajribasiga tayangan holda turli noan'anaviy metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkil etish barcha til o'rganuvchilar uchun mavzuning oson va tushunarli bo'lismeni ta'minlaydi.

REFERENCES:

- "O'ZBEK TILINI O'QITISHDA IJTIMOIY TARMOQLARNING O'RNI" M. Jurayeva.2021.
Teaching English through mass media.Vilma Tafani. 2009
Psychological Effects of COVID-19 Pandemic on Society and Its Reflections on Education
COVID - 19 Pandemisinin Toplum Psikolojisine Etkileri ve Eğitime Yansımaları
Muhammed Akat* - Kasım Karataş** Article · August 2020
Challenges and Benefits of Web 2.0-Based Learning among International Students of English during the COVID-19 Pandemic in Cyprus
Arab World English Journal 2021
www.ares.uz
[Https://texnoman.uz](https://texnoman.uz)
4. <https://uz.eferrit.com> >
[Https://yuz.uz](https://yuz.uz)
<http://mits.uz>